

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING
NAZARIY ASOSLARI**

Normo'minova Gulhayo Shavkat qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi assistenti
Haydarova Jasmina
Samarqand davlat pedagogika Instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari yoritilgan. Kompetensiyaviy ta'limning mazmuni, maqsadi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga hamda bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda zamonaviy ta'lim metodlarining o'rni ochib berilgan. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, tayanch kompetensiyalar, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические основы компетентностного подхода в начальном образовании. Проанализированы сущность и цели компетентностного обучения, а также его значение в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, решения проблем и применения знаний на практике. Освещены педагогические условия формирования ключевых и предметных компетенций у младших школьников, а также роль современных образовательных технологий. В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности образования на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, начальное образование, ключевые компетенции, педагогические технологии, самостоятельное мышление, эффективность образования.

Annotation

This article discusses modern ways of improving the assessment system in primary education. The importance of assessment in enhancing the quality of education and the effectiveness of formative and competency-based assessment methods are analyzed. The article also highlights the role of an individual approach, motivational

assessment, information technologies, and self-assessment in students' development. Recommendations for organizing a fair and effective assessment system in primary education are provided.

Keywords: assessment system, primary education, formative assessment, competency, motivation, pedagogical technology, self-assessment.

O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan malakali kadrlar tayyorlash va inson kapitalini rivojlantirishni ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy institut sifatida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurati paydo bo'ldi. Ushbu jarayonlar maktab ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Bu ta'lim tizimidagi vazifalarga talablar bilan bog'liq bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi: har bir insonning xususan bolalarning individualligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi xavfi mavjud; texnologiyalarning o'ta shiddat bilan rivojlanishi bolalarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, chunki endilikda ularning katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishi qiyinlashadi; barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur bo'lganda muvaffaqiyat uchun raqobat kuchayadi; shuningdek, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar har doim ham bolalarning ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq hisobga olmaydi. Zamonaviy maktabning asosiy vazifasi esa har bir o'quvchining qobiliyatini ochib berish, yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda yashashga tayyor shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabdagi ta'lim o'quvchining shaxsiy o'sishiga yordam berishi kerak, shunda maktab bitiruvchilari mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yish va ularga erishish, turli hayotiy vaziyatlarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun hozirgi zamon o'quvchilari allaqachon boshlang'ich sinflardayoq mustaqil va mas'uliyatli bo'lishlari kerak, bundan tashqari nafaqat maktabda, balki maktabdan tashqarida ham muvaffaqiyatlarga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolaning ahamiyati kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini ochib berish va uning boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'rnini asoslash bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kompetensiya tushunchasi o'quvchilarning o'qish, mehnat va kundalik hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va tajribalar majmuasini ifodalaydi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuvning asosiy jihatlari, uning ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirishdagi roli hamda o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ushbu yondashuv orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga va hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Vazifalari: ta'limda kompetensiyaviy yondashuv tarixini xorijiy va milliy tajribalar misolida o'rganish; boshlang'ich kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning umumiy tamoyillarini ko'rib chiqish; boshlang'ich kasbiy ta'limning asosiy

kompetensiyalari mazmunini tadqiq etish; ta'limda kompetensiyaviy yondashuv muammolarini ko'rib chiqish.

Kompetensiya lotincha “*competo*” so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma'nolarini beradi, ya'ni kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini ifodalaydi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqinda, XX asrning ikkinchi yarmi 1950-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi. Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi yoki mutaxassisning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zi shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyati hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Kompetensiya tushunchasining o'zi AQSh da buyuk o'qituvchilarining ish tajribasini o'rganish jarayonida paydo bo'lgan, uni tahlil qilish, konseptual asosini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab urinishlar natijasi bo'lgan. Shunday qilib, kompetensiyaviy ta'lim nazariyasi tajribaga asoslanadi, ilg'or tajribalardan kelib chiqadi. Jon Raven va “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” kompetentlikning asoschisi hisoblanadi. U o'z asarida kompetensiyaning kengaytirilgan ta'rifini keltiradi va uni “sub'yekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda ochib beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi” sifatida tushuntiradi. U kompetentlikning mohiyati haqidagi o'z tasavvurlarini bayon qildi va taqdim etdi, kompetentlik turlarining tasnifini ochib berdi. Bundan tashqari uning paydo bo'lishini mashhur amerikalik tilshunos N.Xomskiyning tadqiqotlari bilan ham bog'lash mumkin. N.Xomskiy kompetensiya tushunchasini til nazariyasi, transformatsion (generativ) grammatikaga tatbiq qilish bilan shakllantirdi. Uning ta'kidlashicha, ... «biz kompetensiya (so'zlovchi va tinglovchining o'z tilini bilishi) va foydalanish (aniq vaziyatlarda tildan real foydalanish) o'rtasida fundamental farqni amalga oshiramiz. Faqat ideallashtirilgan holatdagina... qo'llash kompetensiyaning bevosita in'ikosi hisoblanadi. Aslida esa u kompetensiyani bevosita aks ettira olmaydi... men kiritgan qarama-qarshilik Sosyurning til va nutq qarama-qarshiligi bilan bog'liq, ammo... tezroq Gumboldtning yashirin kompetensiya tushunchasiga tug'diruvchi jarayonlar tizimi sifatida qaytish zarur.

Shu o'rinda aynan qo'llash “yashirin” potensial kompetensiyaning dolzarb ko'rinishi ekanligiga e'tibor qaratish lozim. N.Xomskiy fikricha, “voqeilik”

voqeylikda fikrlash, tildan foydalanishga bo'lgan munosabat, ko'nikma va boshqalar bilan bog'liq, ya'ni so'zlovchining o'zi, insonning o'z tajribasi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, (1959) R. Uaytning ishida kompetensiya toifasi motivatsiyani o'z ichiga olgan shaxsiy tarkibiy qismlar bilan mazmunan to'ldiriladi. N. Xomskiy, R. Uayt, Dj. Raven, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, V.N. Kunitsina, G.E. Belitskaya, L.I. Berestova, V.I. Baydenko, A.V. Xutorskoy, N.A. Grishanova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlili ta'limda kompetensiyaviy yondashuv shakllanishining uch bosqichini shartli ravishda ajratish imkonini berdi. 1960-1970-yillardagi birinchi bosqich ilmiy apparatga "kompetensiya" kategoriyasining kiritilishi, kompetensiya/kompetentlik tushunchalarini farqlash uchun shart-sharoitlarning yaratilishi bilan tavsiflanadi. Shu vaqtdan boshlab transformatsion grammatika va tillarni o'qitish nazariyasi yo'nalishida til kompetensiyasining turli ko'rinishlarini o'rganish, "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini D. Xayms tomonidan kiritildi.

1970-1990-yillardagi ikkinchi bosqich (J.Raven) kompetensiya/ kompetentlik kategoriyasining nafaqat nazariya va til o'qitish amaliyotida, shuningdek, til o'qitish amaliyotida qo'llaniladi. Bu orada boshqaruv, rahbarlik, menejment, muloqotga o'rgatishda "ijtimoiy kompetensiya" tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi. Jon Ravenning ta'kidlashiga ko'ra, 37 ta kompetensiya turlarini ajratib chiqdi. Masalan:

- Qaror qabul qilish qobiliyati;
- Shaxsiy javobgarlik;
- Fikrlashning mustaqilligi, o'ziga xosligi;
- Boshqalarni tinglash va e'tiborga olish qobiliyati
- Boshqa odamlarga mustaqil qaror qabul qilishga ruxsat berishga tayyorlik;
- Nizolarni hal qilish va kelishmovchiliklarni yumshatish qobiliyati;
- Faoliyat jarayoniga hissiyotlarni jalb qilish;
- Mustaqil ta'lim olishga tayyorlik va qobiliyat va boshqalar.

Uchinchi bosqich XX asrning 90 yillarida paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Rossiyalik olim N.V. Kuzminaning kasbiy-pedagogik kompetentlik ishlari bo'yicha ishlab chiqilgan mehnat psixologiyasining umumiy kontekstida kasbiy kompetentsiya har tomonlama ko'rib chiqish predmetiga aylanadi. N.V. Kuzminaning ta'kidlashicha pedagogik kompetensiya turlari quyidagilardan iborat:

- O'qitilayotgan fanning maxsus va kasbiy kompetentligi;
- O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish usullari bo'yicha metodik kompetentlik;
- Muloqot jarayonlari sohasidagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik;
- Sohada differensial-psixologik kompetentsiyasiga ko'ra o'quvchilarning motivatsiyalari, qobiliyatlari;
- Qadr-qimmat va o'z faoliyati va shaxsiyatidagi kamchiliklar.

O'qituvchining asosiy pedagogik kompetensiyalarini beshta klasterga birlashtirish mumkin: gnostik, loyihalash, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va umuman olganda ular bundan 40 yil oldin N.V. Kuzmina tomonidan ajratilgan turlarga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini oshirishga, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy ta'lim jarayonida o'quvchi ta'limning markaziy subyekti sifatida qaraladi hamda uning qiziqishi, qobiliyati va individual imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularning kommunikativ savodxonligi, axborot bilan ishlash malakasi, ijtimoiy faolligi va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa kelajakda barkamol, raqobatbardosh va mustaqil shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni erkin fikr bildirishga undaydi hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur yondashuvni samarali amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kasbiy mahorati, ijodkorligi va pedagogik kompetentligi ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini yanada takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy metodlarni keng joriy etish hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni hayotga tayyorlash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim pedagogik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev O. O. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari va metodlari. Development of science, Vol. 1 Aprel 2025/ 4, 143b.
2. Ergasheva S. Y. Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv va pedagogik texnologiyalarning samaradorligi. Journal of Universal Science Research/ISSN (E): 2181-4570, 1463b.
3. Shayqulova D. N. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkilotish bo'yicha metodik tavsiyalar. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali/ ISSN:3060-4923, ImpactFactor-7,212/Fevral 2026, 449-450 b.
4. Raxmonova M. Boshlang'ich ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish. Central Asian Journal Of Education And Innovation IF=8.9 Volume 5, Issue 01, January 2026,

5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. Mahmudov A.X.Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didakrik asoslari//Uzkuksiz ta'lim.-2012 - № 4. 8-12 b.
7. Chomsky, N. (2006). Language and mind. 3 rd ed. Cambridge: Cambridge University Press